

## YUSUF HOS HOJIBNING “QUTADG’U BILIG” ASARINING TIL XUSUSIYATLARI, UNDA FRAZEOLOGIK IBORALARNI QO’LLANILISHI TADQIQI

**Abdullayeva Vazira Quronovna**

Qo‘qon Universiteti “Ta‘lim” kafedrasida o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asrining til xususiyatlari va unda frazeologik iboralarni sematik ma‘nolarni ifodalanishi, frazeologiyalarni madernlashishi yuzasidan fikr yuritiladi.

**Kalit so‘lar :** Frazeologiya, frazeologik birikmalar, ko‘chma ma‘no, frazeologik monosemiya va frazeologik polisemiya

O‘zbek adabiyotining eng nodir asarlaridan bo‘lgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari ramziy obrazlar talqini asosida yaratilgan. Asarni “Qutadg‘u bilig” deb atalishining ma‘no mazmuni ham o‘zi xos ahamiyatga ega.

“Qutadg‘u bilig” – qut (saodat, baxt) keltiruvchi bilim demakdir. Asarni maydonga kelishi davlatni odilona boshqarishga turtki beradi. Asarda to‘rtta bosh qahramonning o‘zaro ijtimoiy-siyosiy voqelik qatnashchisi sifatida ishtiroki asosida qurilgan. Asarda muallif «Davlat Adolat va Aql bilan boshqarilmog‘i kerak» degan fikrni ramziy shaklda ifodalagan. O‘g‘durmish va O‘zg‘urmishning savol-javoblari ba‘zan keskin munozara darajasiga yetadi. Muallif asarni til xususiyatlarni foydalanishda o‘ta mohirona qo‘llashga harakat qilgan. Asar tilida qadimgi turk tilining ildizlari sezilib turadi. Asarda juda ko‘plab semantik ma‘nolarni aks ettiruvchi frazeologik birliklardan qo‘llashga harakat qilingan.

O‘zbek tilshunosligining tarixiy jarayonini kuzatar ekanmiz, bir qator asarlar matnida til birliklarining o‘ziga xoslik mavjudligini ko‘ramiz. Bu borada O‘zbekiston Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Milliy o‘zligimizni anglashda, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy ishlar tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash zarurligi<sup>1</sup>” yuzasidan ma‘ruza qildi. Mazkur Murojaatnoma asosida tilshunoslikda til tarixi va tilning etnografik tomonlarini o‘rganish yanada faollashdi.

Shunga ko‘ra moziy sarhatlaridan joy olgan XI asrning nodir asari bo‘lgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llanilgan frazeologik birliklar va semantik ma‘nolarni yuzaga kelishini kuzatish tilshunoslikning o‘rganish muammolaridan hisoblanadi.

Asar hijriy 461 (mld.1089-1070) yillarda yozilgan, 18 oy ichida yozib tugatilgan. Hajm jihatidan yirik, 73 bobdan iborat badiiy jihatdan ancha mukammallikka ega bo‘lgan.

“Qutadg‘u bilig” asari 6500 bayt yoki 13 000 misraga yaqin she‘rlardan iborat. “Qutadg‘u bilig” asarining 3 nusxasi (Vena, Qohira, Namangan) mavjud. Asar masnaviy “mutaqoribi musammani mahzuf” vaznida yozilgan. Asarda to‘rtliklar ham uchraydi.

**METODOLOGIYA VA O‘RGANILISHI:** Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari XI asr so‘z san‘atining juda ham nodir asari hisoblanadi. Asar XI asarning ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy, turkiy xalqlarning tili, turmush tarzi haqida ma‘lumot beradi. Tarixiy ma‘lumotlar asosida qurilgan til birlik va qurilmalarda tilga oid bilimlarni tadqiq qilishi taqozo etadi. Jahon tilshunoslaridan Iosif Fon Xammer, V.Radlov, A.Kanonov, I.Stebleva, Martin

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev.Taraqqiyot yo‘limining shiddati yanada oshaveradi,Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi ma‘ruza//Xalq so‘zi, Toshkent, 2018,29 dekabr

Xartman, A.Vamberi, F.Ko'prulu, Zakiy, V.To'g'on, Rashid Rahmat Arat va boshqalar olimlar o'rganib chiqqan. "Qutadg'u bilig" asarining to'la nashrini joriy yozuvga Fitrat, Q.Abdurahmonov, B.To'xliyev kabi olimlar adabiy qarashlari orqali o'rganib chiqilgan. Biroq "Qutadg'u bilig" asaridagi frazeologik birliklarni qo'llanilishi hamon ilmiy jihatdan o'rganishni taqozo etadi.

Jahon tilshunosligida til elementlarining transformatsiyalashi natijasda leksik ma'noni grammatik ma'noga transformatsiya qilish (ko'chish) asosida grammatikalizatsiya hodisasi, birikma ma'nosining so'z ma'nosiga transformatsiya asosida leksikalizatsiya hodisasi yuzaga kelish e'tirof etiladi. Shuningdek, so'z birikmasi va frazeologik birliklarning tarkibiy va ma'noviy transformatsiyasi asosida frazeologizatsiya hodisasi yuzaga keladi.

Sh.Balli frazeologik semantikaning ularning mutlaq belgisi deb e'tirof etib birikmalarni leksik - grammatik, semantik va sintaktik yaxlit birliklar ekanligini ta'kidlaydi  
**TADQIQOT NATIJASI:**O'zbek tilshunosligiga xos xususiyatlarni tahlil qilishda mazkur maqolamizda biz tarix bitiklarida saqlanib qolgan asarlarning til xususiyatlarini o'rganishga jazim qildikki, tarix orqali biz xalqimiz o'tmishi, tili va madaniyatini bilib olamiz.

Ma'lumki, Sharq xalqlarining madaniy hayotini rivojlanishida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining alohida o'rni mavjud.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari butun turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlarning ham tilshunoslik hamda badiiy adabiyot namunasidir. Ushbu asarda qadimgi turk tilining ifori sezilib turadi. Asarning ma'no mazmunini to'rtta badiiy obrazlarining aks ettirilishi ochib beradi. Kuntig'du- (chiqqan oy) – adolat, Oyto'ldi (to'lgan oy) – baxt va davlat, O'gdulmish (aql), O'zg'urmish (uyg'ongan) – qanoat timsolida aks ettiriladi.

Asar qahramoni o'rtasidagi o'zaro suhbat bayon qilinadi. Suhbat jarayonidagi she'riy matnlarda fikrlarni bayon qilishda ko'chma ma'noli so'zlar va frazeologik birikmalar qo'llash orqali asardagi voqelikni jonlantirishga erishgan.

Frazeologiya atamasi grek tilidagi ikkita so'zdan, ya'ni "phrseos" –ifoda va "logos" – so'zlardan tashkil topgan. Frazeologiya tilshunoslikni ajralmas bir qismi bo'lib, u tilning frazeologik birliklarini ham tarixiy, ham zamonaviy nuqtayi nazardan o'rganadi.

Ma'lumki, hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologiya va frazeologik birikmalar tilshunoslikning frazeologik tarkibi va hozirgi holati va tarixiy taraqqiyotni tekshirishga ko'mak beradi. Shu bilan birga muayyan tildagi frazeologizmlar majmui hisoblanadi. Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat-e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi.

"Qutadg'u bilig" asarida xalq og'zaki ijodi asosida maqol va matallardan ko'p o'rinda qo'llanilgan. Maqol va matallar ma'no - mazmunini turg'u iboralar –frazeologik birliklarni alohida o'rni ko'rinadi.

"Qutadg'u bilig" asari XI asrda yozilganligi sababli frazeologik iboralarning tarixiy ekanligini, zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklarni o'rganilganida tarixiy frazeologiyani ildizlari zamonaviy tilshunoslikda modernlashganlik holatlari yuzaga kelgan.

Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosida frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir.Umumiy tilshunoslik muqtayi nazardan frazeologik birliklar deganda semantik jihatdan bir-biriga tobe bo'lgan (ya'ni erkin bo'lmagan) nutq jarayonida gapiruvchi tomonidan erkin so'zlarni bir-biriga qo'shish yo'li bilan tuzilmaydigan til leksikonida tayyor holda mavjud bo'lgan va jamiyat tomonidan

belgilangan barqaror ma'noga ega bo'lgan ma'lum bir leksik-grammatik tuzilma, birlik tushuniladi.<sup>2</sup>

Frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi. Frazemalar esa ko'chma ma'noli turg'un konstruksiya hisoblanadi<sup>3</sup>

Йағыз тағ йэр йашыл торку йузке бады  
Хытай аркышы йадты тавғач иди

Ma'nosi:  
Bo'z yer yuziga yashil parda tortdi,  
Tavg'och hazrati oliylari Hitoy karvonini tarqatdi [73-bet]

Ushbu baytda yerda bo'z yer yuziga yashil parda tortdi – frazeologik ibora bo'lib, tabiatda o'to'lanlarni ko'karishi ya'ni bahor fasli boshlanayotganligiga ishora qilinib, ko'kardi, unib chidi semantik ma'nosini bildirgan.

Йазы тағ йер обры тошенди йадыб  
Этинди колы кашы кок ал кедиб  
Ma'nosi :  
Tekisliklar, tog'lar, yer, chuqurliklar yo'yilib to'shandi,  
Ko'k va ol kiyib, qo'l va qoshi bezandi.[73-bet]

Mazkur baytda frazeologik birliklar o'xshatish bilan qorishib ketgan. Bu yerda tekisliklar, tog'lar, yer, chuqurliklar yo'yilib to'shandi – frazeologik birikma bo'lib, tekisliklar, yerlar va chuqurliklar ko'karayotganligiga ishora berilgan.

Ko'k va ol kiyib, qo'l va qoshi bezandi- ushbu gapda frazeologik birikma o'xshatish bilan birga kelgan. Matndagi ko'k, ol - o'xshatish, kiyib so'zi bilan birga frazeologik birikmani hosil qilgan. Qo'l va qoshi bezandi – frazeologik polesemantik birlik, ot so'z trkumiga oid – qo'l, qosh so'zlari bezandi so'zi bilan birgalikda ibora sifatida kelgan Mazkur frazeologik birliklarning semantik ma'nolarini tahlil qilsak, ko'k va ol kiyib – unib chiqish, ko'karish; qo'l va qoshi bezandi – gullash ma'nolarini anglatgan.

Йырақ болдум элиг тапуғында таш  
Иригледи одлек менер тугди қаш  
Ma'nosi:  
Men elig xizmatidan tashqariga chiqdim, uzoqlashdim,  
Falak mendan yuz o'gurdi, qovog'ini uydi.(280-bet)

Ushbu baytdagi tashqariga chiqmoq, yuz o'girish, qovog'ini uyish kabi turg'un iboralar mavjud bo'lib, bu kabi so'zlar qurilishi yaxlit bir so'zing ma'nosiga teng keldi. Tashqariga chiqmoq – xizmat qilmay qo'yish, yuz o'girish – rad qilish, muomila qilmaslik, qovog'ini uyish - xafa bo'lish kabi so'z ma'nolarini anglatadi.

Қалық қашы тугди кози йаш сачар  
Чэчек йазды йуз кўр кулер қатғурап  
Ma'nosi:

<sup>2</sup> M.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish, Toshkent, Yangi asr avlodi, 2008, 214-b

<sup>3</sup> N.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, 2006, 204-b

Osmon qovog'ini soldi, ko'zidan yosh sochmoqda,  
Gullar yuz ochdi, boq, kulmoqda, qah-qahlamoqda. (75-bet)

Asardagi quyidagi baytda tarixiy frazeologik birliklarning o'rni beqiyosligi bilan ajralib turadi. Asarda bevosita qadimgi turkiy tilning izlari sezilaib turadi. Қалық қашы тугди кози йаш саҗар - Osmon qovog'ini soldi, ko'zidan yosh sochmoqda misralarida osmon qovog'ini soldi – frazeologik birlik, tabiatda ob-havoni o'zgarishi, ko'zidan yosh sochmoqda – frazeologik birlik, yomg'ir yog 'ish semantik ma'nosini anglatgan.

Frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi. Frazemalar esa ko'chma ma'noli turg'un konstruktsiya hisoblanadi <sup>4</sup>

Frazemalar tarkibidagi so'zlarning bog'lanishi erkin birikma yoki gap tarkibidagi so'zlarning bog'lanishidan farq qilmaydi: ularning barchasida so'zlar tobelanishi asosida bog'lanadi, biroq erkin birikmadagi va gapdagi bog'lanish nutq jarayonida, nutq bilan bir paytda sodir bo'ladi; frazemadagi bog'lanish esa nutq paytidan ancha avval yuzaga kelib, turg'unlashib qoladi, inson xotirasida va tilda yaxlitligicha saqlanadi.

Tilshunoslikda frazeologiyalar ikkita ma'noni bildirgan. Bu kabi frazeologik birikmalar frazeologik monosemiya va frazeologik polisemiya deb atalgan. Frazeologik monosemiyada tarkibida bitta frazeologik ma'no boladi. Misol tariqasida “Qo'l solib ko'rish”- *bilmoq ma'nosini* anglatadi. Frazeologik polisemiya tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nolarni anglash mumkin bo'ladi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarini kuzatish davomida asar matnida asar syujetini yaratishda bir qator frazeologik birikmalardan foydalanganini ko'ramiz. Asardagi bu kabi tilshunoslikka xos xususiyatlarni hozirgi tilshunoslik nuqtayi nazardan tahlil qilish tilshunoslikning vazifasi hisoblanadi.

Tarixiy til xususiyatlarni tahlil qilish maqsadida XI asrda yozilgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarni kuzatar ekanmiz muallif o'xshatish va frazeologik birikmalardan mohirona foydalanganiga amin bo'lamiz. Asarda o'xshatish va frazeologik birliklarning ifodalanishi so'zlarning lersik ma'nosini kuchaytirishga xizmat qilgan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida bir qator tarixda qo'llanilgan frazeologik birikmalar uchraganini ko'rish mumkin. Bu kabi frazeologik birikmalarni tahlil qilganimizda hozirgi kun nuqtayi nazaridan o'ziga xos bir qator ma'nolarni anglatganini his qilamiz.

**MUHOKAMA VA XULOSA:** Ko'rinib turibdiki, turli davr ruhi o'zida aks etgan til xususiyatlarini tahlil qilish davomida asar matnidagi frazeologik birikmalarning qo'llanilishi hozirgi o'zbek adabiy tili nutqayi nazardan tegishli ma'nolarni bildirish holatlari topish murakkablik keltirib chiqarmaydi.

Xulosa sifatida shu aytish mumkinki, frazeologik birliklar Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida qo'llanilishi asarning mazmunini yanada boyitishga xizmat qilgan. Frazeologik birikmalarni qo'llanilishi tarixiy jihatdan ham o'zbek tilshunosligida yuzaga kelganini hamda adabiyot namunalarida keng foydalanganini ko'ramiz. Tilshunoslikda frazeologiyalar o'zaro semantik munosabatlarini ham ko'rish mumkin. Frazemalar (ko'chma ma'noga ega bo'lgan iboralar) ifoda jihatiga ko'ra voqea bo'ladigan munosabatlar deb omonimiklik, omonimiya va paronimiya hodisalari ko'rsatiladi.

Frazeologik omonimiklik erkin bog'lanma bilan ifoda jihatiga ko'ra o'zaro teng kelishi nazarda tutiladi. Masalan, *kun o'tdi* erkin bog'lamasidagi *kun o'tdi* bog'lamasi o'z mustaqil

<sup>4</sup> N.Jamolxonov.Hozirgi o'zbek adabiy tili,Toshkent, 2006 ,204-b

ma'nosini saqlagan holda bog'lanadi. Frazema yaxlitligicha ko'chma ma'no anglatadi. Ya'ni, *kun o'tdi - tirikchilik qildi, ya'ni yashadi* ma'nosini anglash mumkin. Bu kabi iboralar tilda bir qanchani tashkil qiladi.

Tilshunoslikda sinonim haqida grekcha so'zidan olingan bo'lib, "syn" bir va onoma "nom" demakdir. Shakli har xil, bir tushunchani bildiruvchi til birligi sinonim deyiladi.

Tilshunoslikda sinonimiyalarni quyidagicha turlarga bo'lish mumkin:

1. Lug'aviy sinonimiya, ya'ni so'z ma'nodoshligi: ish, yumush, gapirmoq, so'zlammoq.
2. Iboralar (frazeologik) ma'nodoshli: boshi osmonga yetdi, terisiga sig'madi kabilar.
3. Qo'shimcha (affiksial) ma'nodoshligi: bu o'z o'rnida ikkiga bo'linadi.
  - a) so'z yasovchi qo'shimcha ma'nodoshligi: -ser, -dor, -siz, -be ;
  - b) grammatik shakl ma'nodoshligi: - yap, -yotir, -moqda kabilar;
  - e) sintaktik ma'nodoshligi – bog'langan so'zlardagi ma'nodoshlik uchraydi.

Tilshunoslikda yuqoridagi sinonimlardan lug'aviy va frazeologik sinonimiyalar uchraydi.

Sinonimlar ma'no xususiyatlarini ko'zda tutib ikki hodisani bir-biridan farqlash lozim:

- tushuncha va so'z, uning o'zaro munosabati;
- So'z va uning ma'nolari, har bir so'zning ma'no qirrasini anglanishi .<sup>5</sup>

Shunga ko'ra, bir yoki bir necha jihati o'zaro farqli frazemalar frazeologik sinonimlar deyiladi. Masalan, og'zingga tolqon sol -, mum tishla, frazemalari ayni bir lug'aviy ma'noni - mutlaq gapirma, - suhbatga mutloq qatnashma – ma'nosini anglatadi.

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklarning kelib chiqishi va uning asar matnini semantik ma'nolarini yanada kuchaytirishida tarixiy nodir asarlarning matnidagi frazeologik birliklarni o'rganish o'ta muhim sanaladi.

Tarixiy frazeologik birliklari o'rganilishi asar yaratilganlik davr ruhini va voqeligini ochib berishga xizmat qiladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yati:**

1. Yusuf Xos Hojib . Qutadg'u bilig. Toshkent, Fan nashiriyoti, 1951.
2. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, Yangi avlod, 2008, 124-b nashiriyoti, 1951.
3. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent, Akademya nashri, 2012.
4. B. Isaqulova. O'zbek tili frazeologik birliklarning transformatsiyasi, dissertatsiya avtoreferati, Samarqand, 2019.
5. Sh. Rahmatullaev. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari, Toshkent, 1966.

<sup>5</sup> O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent, Akademya nashri, 2012, 74-b